



UDK:94.5

Sherzod RO'ZMETOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: sherzodro'zmetovov86@gmail.com.

TDSHU professori, tarix fanlari doktori Sanobar Shodmonova taqrizi asosida

TRANSFORMATION PROCESSES IN TOURISM POLICY IN THE COUNTRIES OF THE CENTRAL ASIAN REGION DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation

This article examines the transformation processes of tourism policy in Central Asian countries during the years of independence. It analyzes institutional reforms, governance mechanisms, and strategic development directions.

Keywords: Central Asia, tourism policy, transformation, governance, infrastructure, international cooperation.

ТРАНСФОРМАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В ТУРИСТИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКЕ СТРАН РЕГИОНА ЦЕНТРАЛЬНАЯ АЗИИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

В статье анализируются процессы трансформации туристической политики в странах Центральной Азии в годы независимости. Рассматриваются институциональные реформы, государственное регулирование и стратегические направления развития туризма.

Ключевые слова: Центральная Азия, туристическая политика, трансформация, государственное управление, инфраструктура, международное сотрудничество.

MUSTAQILLIK YILLARIDA MINTAQA MAMLAKATLARIDA TURIZM SIYOSATIDAGI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI

Аннотация

Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida turizm siyosatining shakllanishi, rivojlanishi va transformatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston misolida turizmni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari, strategik yondashuvlar hamda institutsional o'zgarishlar o'rganilgan. Shuningdek, global turizm bozoriga integratsiya, infratuzilma rivoji va xalqaro hamkorlikning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, turizm siyosati, transformatsiya, davlat boshqaruvi, turizm infratuzilmasi, xalqaro hamkorlik, barqaror turizm, iqtisodiy rivojlanish.

Kirish. Mustaqillikdan so'ng Markaziy Osiyo mamlakatlarida iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning tubdan yangilanishi turizm sohasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Sobiq markazlashgan reja iqtisodiyotidan bozor munosabatlariga o'tishi jarayonida turizm siyosati yangi mazmun kasb etdi. Mintaqa davlatlari o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy resurslari va geografik joylashuvidan kelib chiqib, turizmni iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirishga kirishdilar. Shu nuqtai nazardan, turizm siyosatidagi transformatsiya jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilish, umumiy tendensiyalar va o'ziga xos jihatlarni aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Markaziy Osiyoda turizm rivoji va siyosati masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, mintaqada turizmni rivojlantirish strategiyalari, institutsional islohotlar va davlat siyosatining o'zgarishi masalalari ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon turizm tashkiloti tomonidan e'lon qilingan hisobotlar Markaziy Osiyoda turizmning rivojlanish tendensiyalarini baholashda muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki hisobotlarida turizm infratuzilmasi, investitsiyalar va barqaror rivojlanish masalalari chuqur tahlil qilingan.

Mahalliy tadqiqotlarda esa turizmni milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasi vositasi sifatida rivojlantirish, davlat dasturlari va qonunchilik bazasining takomillashuvi alohida o'rin egallaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda kompleks yondashuv qo'llanilib, tarixiy, qiyosiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Turizm siyosatining evolyutsiyasi tarixiy nuqtai nazardan o'rganilib, mustaqillikdan keyingi davrlar kesimida tahlil qilindi. Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlarining turizm siyosati o'zaro qiyosiy tahlil asosida

o'rganildi. Statistik ma'lumotlar, davlat dasturlari va xalqaro hisobotlar asosida umumlashtirish va tahliliy xulosalar chiqarildi.

Tahlil va natijalar. Mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo mamlakatlari o'z hududlarida turizm sohasini rivojlantirish va takomillashtirish borasida harakatlarni boshlab yuborishdi. Sohani takomillashtirish uchun birinchi navbatda uning qonuniy asoslari ishlab chiqilishi lozim edi.

O'zbekiston Respublikasida 1999-yil 20-avgustda "Turizm to'g'risida" gi davlat qonuni qabul qilingan edi[1]. Qonunni qabul qilishdan ko'zlangan maqsad turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek turistlar va turistik faoliyat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat edi. Qayd etish lozimki, mazkur qonun hujjati turizm sohasini tartibga solishga qaratilgan dastlabki hujjatlardan biri edi. Joriy qonunda turistik faoliyatga davlat aralashuvining yuqoriligi yaqqol aks etib turar edi. Shuningdek, qonundagi asosiy e'tibor milliy xavfsizlikni ta'minlash orqali turistlar oqimini nazorat qilish va boshqarishga qaratilgan edi.

Turizm sohasi qonunchiligidagi bo'shliqni to'ldirish, normativ-huquqiy bazalarni mustahkamlash va uni xorij tajribasiga muvofiqlashtirish maqsadida yangi tahrirdagi Turizm to'g'risidagi davlat qonuni O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 16-aprelda qabul qilinib, Oliy Majlis Senati tomonidan 2019-yil 21-iyunda ma'qullangan va O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 18-iyulda imzolangan va qabul qilingan[2]. Yangi qonun turizmni turistlar va turizm biznesiga qaratilgan iqtisodiy faoliyat sifatida amalga oshirish qoidalarini belgilaydi. Bundan tashqari, "Turizm to'g'risida"gi yangi qonunda xorijda va YUNVTOda qo'llaniladigan atamalarga havolalar mavjud bo'lib, bu uning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi.

Qirg'iziston Respublikasining Turizm to'g'risidagi davlat qonuni 1999-yil 25-martda qabul qilingan. Mazkur qonunga 2003-yil 21-oktabr, 2013-yil 5-dekabr, 2017-yil 10-may, 2024-yil 10-yanvarda to'rt marotaba o'zgartirish kiritilgan[3]. Qonun olti bob va 18 maddadan iborat bo'lib, turizmga oid atamalarining ta'riflari, turizm sohasidagi davlat organlarining roli, turizm bilan bog'liq tashkilotlar va turistlarning huquq va majburiyatlari, turizmni rivojlantirish maqsadida sarflanadigan moliyaviy resurslar, turizm bilan bog'liq xavfsizlik va sug'urta masalalari, tabiiy, tarixiy va madaniy resurslarni saqlash kabi muhim jihatlarni o'z ichiga olgan. Joriy qonunda sayyohlarni milliy xavfsizlik manfaatlaridan kelib chiqib nazorat qilish degan tushunchalar mavjud emas. Shuningdek, rasmiy Bishkek tomonidan turizmni milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri sifatida targ'ib qilish sust holatda ekanligini ta'kidlash lozim.

2021-yil 12-oktabrda Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2026-yilgacha Qirg'iziston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur imzolangan bo'lib, dasturning 6.3-bandi turizm sohasiga bag'ishlangan edi. Dasturda

Qirg'iziston Respublikasida shaxsiy xavfsizlik, sifatli tibbiy xizmat, ochiq va aniq axborot, qulay logistika va joylarda xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali turizm jozibadorligi ta'minlanishi lozimligi qayd etilgan edi. Shuningdek, milliy turizm xizmatlarini muvaffaqiyatli targ'ib qilish uchun Markaziy Osiyo davlatlarining turistik mahsulotlarini birlashtiruvchi mintaqaviy loyihalarni amalga oshirish talab etilgan. Shu bilan birga Turizm sohasini rivojlantirish klaster yondashuvi asosida amalga oshirilishi belgilangan. Davlat yirik turistik klasterlar yaratish uchun sharoit yaratadi. Xususan, chang'i sportiga ixtisoslashgan klaster - Qorako'l shahri asosida, tarixiy-madaniy yo'nalishdagi klaster - O'sh shahri asosida, dam olish (rekreatsion) klaster - Jalolobod shahri asosida tashkil etiladi. Bundan tashqari, mamlakatning tabiiy-iqlimiy xususiyatlariga va zarur infratuzilmani yaratishga asoslangan reabilitatsiya xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan "tibbiy turizm" klasterini yo'lga qo'yish ham qayd etilgan[4]. Dasturda "tibbiy turizm" klasterini yo'lga qo'yish, mamlakatni elektron platformalar va B2B tadbirlar tizimi orqali targ'ib qilish, Turizmni rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish, Issiqko'l viloyatida brend mehmonxonalar tarmog'ini qurish, kichik aviatsiyani rivojlantirish kabi loyihalar ilgari surilgan.

2021-yil 13-iyunda Qozog'iston Respublikasi tomonidan qabul qilingan "Turizm to'g'risida"gi qonun mamlakatda turizm sohasining huquqiy asoslarini belgilab bergan eng muhim normativ-huquqiy hujjatlardan biri sanaladi[5]. Ushbu qonun Qozog'iston Respublikasining mustaqil turizm siyosatini shakllantirish, xorijiy va ichki sayyohlikni tartibga solish, shuningdek, turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun huquqiy asos yaratdi. Qonun 6 bo'lim va 27 moddan iborat bo'lib, unda turizmni rivojlantirishning asosiy prinsiplari, markaziy davlat organlari (xususan, Madaniyat va sport vazirligi) hamda mahalliy davlat hokimiyatlarining turizm sohasidagi vakolatlari, turizm bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar uchun litsenziyalash, ro'yxatdan o'tkazish va standartlashtirish tartiblari, sayyohlar xavfsizligi, ularning huquqiy himoyasi, turistik xizmatlar sifati ustidan nazorat masalalari, sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, maxsus iqtisodiy zonalarda turizm loyihalarini rivojlantirish imkoniyatlari kabi asosiy yo'nalishlar yoritilgan.

Shuningdek, qonun orqali milliy darajada turizmni boshqarish tizimi shakllandi, bunda davlatning tartibga soluvchi, nazorat qiluvchi va rivojlantiruvchi roli aniq belgilandi. YUNVTO (UNWTO), SHHT, MDH doirasida va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan turizm sohasida faol hamkorlikni rivojlantirdi. Sayyohlarning huquqlari, xavfsizligi va manfaatlarini huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Qonun asosida 2000-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab milliy va xorijiy investorlar turistik infratuzilmaga (mehmonxonalar, transport, servislar) sarmoya kiritishni boshladi. Turizmni rivojlantirish orqali viloyatlar, xususan Sharqiy Qozog'iston, Almati viloyati, Turkiston va Mang'istov kabi hududlarda ish o'rinlari yaratildi, mahalliy infratuzilma yaxshilandi.

2019-yil 31-mayda 2019-2025-yillarda Qozog'iston Respublikasida turistik sektorni rivojlantirish davlat dasturi qabul

qilingan[6]. Bu strategik hujjat Qozog'istonda turizmni kompleks rivojlantirish, zamonaviy infratuzilmani yaratish, xizmatlar sifatini oshirish va milliy turistik mahsulotni brendlash kabi vazifalarni o'z ichiga olgan. Dasturga binoan, turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish, jumladan, 2025-yilga borib 8 foizga yetkazish, sayyohlar oqimini ko'paytirish - xorijiy turistlar sonini yiliga 9 milliondan ortiq qilish, ish o'rinlari yaratish - turizm sohasida 650 mingdan ortiq ish o'rni barpo etish, turizm infratuzilmasini modernizatsiyalash, eko-, etno-, sog'lomlashtirish va sarguzasht turizm yo'nalishlarini rivojlantirish kabi maqsadlar belgilangan. Davlat dasturi doirasida Qozog'istonning eng istiqbolli hududlari aniqlanib, ularga ustuvor rivojlanish yo'nalishi sifatida alohida e'tibor qaratildi, Chunonchi, "Nur-Sulton - Burabay" maskanida poytaxt turizmi va dam olish zonalarini tashkil etish, Olmaota va unga yondosh hududlarda sport, tog', madaniy va gastronomik turizmni kengaytirish, Chimkent va Turkiston viloyatlarida ziyorat va tarixiy-madaniy turizm tarmog'ini kengaytirish, Mang'istau viloyatida ekzotik, sarguzasht va ekologik turizm tarmoqlarini kuchaytirish, Alakol ko'lida sog'lomlashtirish turizmi, Baykonur kosmodromida fan-turizmi, Oltoy tog'larida (sarguzasht va ekoturizm kabilarni takomillashtirish uchun alohida turistik master-rejalar ishlab chiqilgan edi.

Turkmaniston Respublikasida Turizm to'g'risidagi davlat qonuni birinchi marotaba 1995-yil 24-noyabrda qabul qilingan bo'lib, 7 bo'lim va 26 maddadan iborat edi[7]. Qonunning umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki, mustaqillikning dastlabki davrida turizm iqtisodiy faoliyat sifatida emas, balki madaniy va ma'naviy qadriyatlarini saqlash vositasi sifatida talqin etilgan. Bu esa o'z navbatida mazkur sohaning mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shishiga imkon bermas edi. Qonunda turizm sohasidagi davlat kafolatlari, mamlakatga kirib kelgan turistlarning huquqlari, ularga xizmat ko'rsatish shartnomalari, ekologik va madaniy meros muhofazasi kabi masalalar yoritilgan edi.

2010-yil 10-mayda yangi tahrirdagi "Turizm to'g'risida"gi qonun qabul qilindi[8]. Yangi tahrirdagi qonun turizm tarmog'ini davlatning muhim iqtisodiy sektorlaridan biri sifatida talqin etdi. Shuningdek, yangi qonunda turizm turlari bo'yicha huquqiy tasniflar, mamlakatdagi mavjud turistik resurslar va ularning potentsiali, turistik faoliyatni litsenziyalash va sertifikatlashning qonuniy tizimi, turistik xizmatlar bozori va unda davlatning reguliyatorlik maqomi, sohadagi xalqaro hamkorlik aloqalarining qonuniy tartiblari aks etgan edi. Bir so'z bilan aytganda yangi tahrirdagi hujjatda qonunchilik huquqiy texnika nuqtai nazaridan takomillashdi va iqtisodiy maqsadlarga yo'naltirilgan.

2010-yildagi qonun avval qabul qilingan hujjatlarga nisbatan ancha mukammal bo'lib, turizm faoliyatining barcha bosqichlarini qamrab olgan. Huquqiy me'yorlar aniq, subyektlar va obyektlar to'g'risidagi tafsilotlar belgilangan. Shu bilan birga rasmiy hujjatdagi ayrim kamchiliklar ham qayd etilishi lozim. Chunonchi, yangi tahrirdagi qonunda erkinlik nazarda tutilgan bo'lsa-da, amaliyotda sayyohlar uchun mustaqil harakat cheklangan. Mahalliy agentlik orqali sayohat qilish majburiyligi, ayollarga qo'yilgan tashqi ko'rinish cheklolari va harakat erkinligi bo'yicha reglamentlar mavjud.

2011-yilda esa mamlakatda turizm sohasini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha 2011-2020-yillarga mo'ljallangan Milliy dastur qabul qilindi[9]. Mazkur hujjatning qabul qilinishi, eng avvalo, turistik xizmatlar ko'lamini kengaytirish, tarmoqning iqtisodiy samaradorligini oshirish, shuningdek, Turkmanistonning xalqaro turizm bozorida raqobatbardosh maqomini mustahkamlash kabi ustuvor vazifalarni ilgari surdi. Dastur ijrosi doirasida 2012-yilda alohida Turizm bo'yicha davlat qo'mitasining tashkil etilgan[10]. Dasturga ko'ra, turizm Turkmanistonda mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining eng faol rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof qilingan. Tarmoqning rivojlanishi bevosita xalqning madaniy merosi, urf-odatlarini, amaliy san'ati, etnografik an'analarini saqlash va ommalashtirish, zamonaviy madaniyat, arxitektura, urbanizatsiya va ekologik barqarorlikka hissa qo'shib kelmoqda. Dasturdagi ustuvor maqsadlar qatoriga 2025-yilga kelib 114 mingdan ortiq xorijlik tashrif buyuruvchilarni mamlakatga jalb qilish,

mehmonxona sektoridagi ma'muriy jarayonlarni, shu jumladan sayohatchilarni elektron ro'yxatdan o'tkazishni raqamlashtirishga ko'maklashish, mamlakatdagi mehmonxonalarni xalqaro internet-marketing platformalarida ro'yxatdan o'tkazishga ko'maklashish hamda turizm sohasida kadrlar tayyorlash hamda malakasini oshirishga ko'maklashish kabilar kiritilgan edi.

Tojikiston Respublikasida "2030-yilgacha Tojikiston Respublikasida turizmni rivojlantirish strategiyasi" 2018-yil avgust oyida qabul qilingan. Strategiyada 2030-yilga borib mamlakat jahon turizm bozori tomonidan barqaror turizm davlati sifatida tan olinishi, yalpi ichki mahsulotda turizm sohasi alohida o'rin tutishi qayd etilgan. Shuningdek, rivojlanayotgan turizm industriyasi hududlarda yangi ish o'rinlarini yaratishi va qishloqlar rivojiga xizmat qilishi belgilangan[11].

Tojikistonning turizm to'g'risidagi amaldagi qonuni yangi qonun bo'lib, 2020-yil avgust oyida kuchga kirdi[12]. Qonun 7 bob va 38 moddadan iborat. Mazkur qonunda turizm mahsulotlari, turistik tashkilotlar, jismoniy shaxslar va turizm bilan bog'liq xizmatlar kabi atamalarning ta'riflari, markaziy hukumat, mahalliy hokimiyat va davlat organlarining turizm sohasida tutgan o'rni, turizm tarmog'idagi davlat reglamentlari, turizm xizmatlari sohasidagi huquq va majburiyatlar, turizm sohasidagi iqtisodiy operatsiyalar kabi masalalar yoritilgan. Bir so'z bilan aytganda yangi qonun turizm sohasi ustidan davlat nazoratini o'rnatadi. 2024-yil 13-noyabrda mazkur qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan[13].

Shuningdek, Tojikiston Respublikasi tomonidan 2017-yil 18-iyul kuni qabul qilingan № 1450-sonli "Ichki turizm to'g'risida"gi hujjat[14] ichki turizm sohasidagi huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy asoslarni belgilab berdi va ichki turizmni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan edi.

2018-yil 1-avgustda esa "Tojikiston Respublikasida 2030-yilgacha turizmni rivojlantirish davlat strategiyasi" qabul qilingan bo'lib, hujjatga ko'ra Tojikiston Respublikasidagi turizm siyosati institutsional tus oldi, ya'ni yagona konseptual yo'l xaritasi yaratildi, xalqaro turizmga ochiqlik ta'minlandi: vizasiz rejimlar, transport yengilliklari, xorijiy investorga qulay sharoitlar yaratildi. Natijada mahalliy aholi turizm tizimiga integratsiyalasha boshladi,

bu esa o'z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy foydalarni taqsimlashga xizmat qilmoqda. Bir so'z bilan aytganda "Tojikiston Respublikasida 2030-yilgacha turizmni rivojlantirish strategiyasi" – bu nafaqat turizm sohasining texnik-modern rivoji, balki mamlakatning xalqaro imijini ko'tarish, iqtisodiyotning diversifikatsiyasi va hududiy ijtimoiy barqarorlik omillarini kuchaytirishga qaratilgan muhim hujjatdir.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish kerakki, mustaqillik yillarida Markaziy Osiyo mamlakatlarida turizm siyosatining shakllanishi va rivojlanishida sezilarli darajadagi transformatsion jarayonlar yuz berdi. Avvalgi sovet markazlashgan tizimidan farqli o'laroq, har bir mamlakat o'zining milliy manfaatlari, iqtisodiy imkoniyatlari va madaniy merosidan kelib chiqqan holda, turizm sohasini strategik tarmoqqa aylantirishga intildi. Bu jarayonda normativ-huquqiy baza yaratish birinchi navbatdagi vazifa sifatida qaralgan bo'lib, Konstitutsiyaviy qonunlardan tortib, alohida sohalarga oid maxsus qonunlarga bo'lgan hujjatlar qabul qilindi.

Masalan, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston kabi davlatlar tomonidan 1990–2000-yillarda qabul qilingan "Turizm to'g'risida"gi qonunlar, davlat dasturlari, prezident farmonlari va hukumat qarorlari turizmni institutsional jihatdan mustahkamlab berdi. Shu bilan birga, ularning ijrosi, amalga oshirish mexanizmlari va amaliyotda qo'llanilishi turlicha natijalarni berdi. Ayrim hollarda byurokratik to'siqlar va moliyaviy resurslarning yetishmasligi sababli belgilangan chora-tadbirlar to'liq amalga oshmadi. Biroq umumiy tendensiya sifatida, normativ-huquqiy asoslarning kuchaytirilishi mintaqa mamlakatlarining turizm sohasidagi o'zaro raqobatbardoshligini va xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qildi.

Shunday qilib, mustaqillik davrida turizm sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi nafaqat milliy turizm infratuzilmasini shakllantirishga, balki uni xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga ham zamin yaratdi. Ushbu huquqiy asoslar amaliy faoliyatda ko'proq tizimli, bozor tamoyillariga moslashgan, barqaror va ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltiruvchi turizm modelini shakllantirishga xizmat qilganini ta'kidlash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 227-modda; O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2006-y., 14-son, 113-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son
2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.07.2019-y., 03/19/549/3446-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son; 14.05.2024-y., 03/24/926/0344-son.
3. Elektron resurs: <https://cbd.minjust.gov.kg/201/edition/1389/ru>. Murojaat qilingan sana: 20.01.2025.
4. Указу Президента Кыргызской Республики от 12 октября 2021 года № 435. Национальная программа развития Кыргызской Республики до 2026 года.
5. Elektron resurs: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=1023618&pos=5;-108#pos=5;-108. Murojaat qilingan sana: 05.12.2021.
6. Elektron resurs: <https://adilet.zan.kz/rus/docs/P1900000360>. Murojaat qilingan sana: 05.12.2021.
7. Elektron resurs: <https://faolex.fao.org/docs/pdf/tuk42573.pdf>. Murojaat qilingan sana: 05.01.2022.
8. Elektron resurs: <https://www.parahat.info/law/2010-05-21-zakon-turkmenistana-o-turizme>. Murojaat qilingan sana: 05.01.2022.
9. Elektron resurs: <https://www.turkmenistan.ru/ru/articles/36342.html>. Murojaat qilingan sana: 20.01.2021.
10. Elektron resurs: <https://turkmenistan.gov.tm/index.php/ru/post/18793/turkmenistan-otkryvaet-miru-svoi-turisticheskie-vozmozhnosti>. Murojaat qilingan sana: 20.01.2021.
11. Исследование со сбором данных по продвижению индустрии туризма в странах Центральной Азии Заключительный отчет. Японское Агентство международного сотрудничества (JICA). International Development Center of Japan Inc. (IDC) PADECO Co., Ltd (PADECO). 2022. -P.11.
12. Elektron resurs: <https://faolex.fao.org/docs/pdf/taj221410.pdf>. Murojaat qilingan sana: 01.12.2021.
13. Elektron resurs: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=32072300&pos=5;-108#pos=5;-108 Murojaat qilingan sana: 22.11.2021.
14. Elektron resurs: <https://faolex.fao.org/docs/pdf/taj183444.pdf>. Murojaat qilingan sana: 22.11.2021.